
MAHALLALARDA NAVRO'Z BAYRAMI KO'TARINKI RUHDA NISHONLANMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanidagi mahallalarda Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi bayram tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Aholi uchun fayzli dasturxon yozilib, doshqozonlarda sumalak va milliy taomlar tayyorlanmoqda. "Hamrak" MFYda o'tkazilgan bayram tadbirida xalqimiz bugungi tinch, dorulomon, to'kin-sochinlik kunlarga shukrona aytib, el-yurtga tinchlik-omonlik va baraka tilab duo qildilar.

2023-03-14 16:07:14